

## **IJTIMOY HIMOYAGA MUXTOJ BOLALARNING DUNYO QARASHINI RIVOJLANTIRISH VA TASHQI MUHIT BILAN ALOQA**

*Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani*

*20-Ixtisoslashtirilgan DMTT tarbiyachisi*

*Xamdamova Farog'at Zokirjanovna*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning dunyoqarashini rivojlantirish borasida tashqi muhit bilan aloqalarning muhimligi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** dunyoqarash, ongli harakat, tashqi muhit, irsiyat, muhit.

Davlat bolaning oilada bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi sharoitlarni bartaraf qilish, bola oilasidan ajratilgan hollarda esa uni oilasiga tezroq qaytarish bo'yicha zarur choralarini ko'radi. Aslini olganda bola uchun eng qulay makon bu uning –uyidir. Lekin ayrim sabablarga ko'ra bolalarni tashqi muhit bilan bog'lagan holda ularning dunyoqarashini, ma'naviy-ma'rifiy olamini rivojlantirib boriladi. Davlat nogironligi bo'lgan bolalarni hamda jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga moddiy yordam, maslahat yordami va boshqa yordam ko'rsatadi hamda ularni qo'llab-quvvatlaydi. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola to'g'risida g'amxo'rlik qilishda imtiyozli huquq bu vazifani bajarishga qodir bo'lgan qarindoshlariga beriladi.<sup>1</sup> Bolani oilaga joylashtirishning imkoniyati bo'lmagan taqdirda, uni ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirish oxirgi choradir. Bu holat bolalar uchun ijobiy va salbiy jihatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu o'rinda Abu Rayhon Beruniyning bola rivojlanishidagi quydagi gaplari bugungi kun uchun dolzarb muammolar yechimi sifatida ko'rilsa ayni muddao bo'lar edi. Bu borada mutaffakkirning so'zlari quydagicha: „ Bola tarbiyasida eng asosiy omil irsiyat, muhit

---

<sup>1</sup> <https://advice.uz/oz/document/2663?keyword=>

va tarbiyadir” .<sup>2</sup> Ko’rinib turibdi ijtimoiy bolalarga quydagi uch omilga yondoshgan holda ularni tashqi muhit bilan bog’lab irsiyatdagi muammolarning o’rnini tashqi muhit va tarbiya bilan to’ldirishimiz lozim. Bu borada davlatimizda qator ishlar olib borilmoqda faqat ularni amaliyotga tadbiiq etsak kifoya. Oilada tarbiyalanishi mumkin bo’lmagan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar ularga zarur g’amxo’rlikni hamda qo’llab-quvvatlashni ta’minlaydigan muqobil shaklda joylashtirilish huquqiga ega.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirishning shakllari:

Qonunchilikka muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirishning boshqa shakllari ham nazarda tutilishi mumkin.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi. Nogironligi bo’lgan shaxslar barcha darajalardagi ta’lim tashkilotlarida ta’lim olish va o’z qobiliyatini yanada to’liqroq rivojlantirish uchun butun umri davomida ta’lim olish hamda jamiyat va davlat hayotida ishtirok etish huquqiga ega.

Nogironligi bo’lgan shaxslarning maktabdan tashqari ta’limi bolalar, o’smirlar ijodiyot saroylari, uylari, klublari va markazlarida, «Barkamol avlod» bolalar maktabida, bolalar-o’smirlar sport maktablarida, bolalar musiqa va san’at maktablarida, studiyalarda, axborot-kutubxona hamda sog’lomlashtirish muassasalarida amalga oshiriladi.

1)Nogironligi bo’lgan shaxslarning oliy ta’limi oliy ta’lim muassasalarida va tashkilotlarida amalga oshiriladi;

2)Nogironligi bo’lgan shaxslarning oliy ta’limdan keyingi ta’limi oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlarda olinishi mumkin;

3)Statsionar davolash-profilaktika yoki reabilitatsiya muassasalarida davolash kursini o’tayotgan nogironligi bo’lgan bolalar uchun mazkur muassasalarda o’quv mashg’ulotlari tashkil etiladi.<sup>3</sup>

Professional ta’lim olish uchun maxsus shart-sharoitlarga muhtoj nogironligi bo’lgan shaxslar uchun turli tipdagi va xildagi ixtisoslashtirilgan professional ta’lim

<sup>2</sup> <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/abu-nasr-forobiy-va-abu-rayxon-beruniylarning-talimiy-axloqiy-qarashlari>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/5049511#5054384>

muassasalari tashkil etiladi. Ularda o'qitish maxsus o'quv dasturlari asosida davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun oliy ta'lim muassasalarida davlat granti asosida abituriyentlarni qabul qilish umumiy sonining 2 foizi miqdorida qo'shimcha qabul kvotasi ajratiladi. Davlatimizda yaratilayotgan sharoitlardan barcha ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar foydalanishga haqlidir.<sup>4</sup> Bu jarayonga ularni maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiya beruvchilari olib kirishlari mumkin. Bolalarni tashqi muhit bilan bog'lash ularning menligini shakllantirish, o'zlarini namoyon qilishlari, jamiyat uchun foydali inson bo'lishlariga ishonch hissini uyg'otmoqlari lozim. Yevropa ta'lim amaliyotida boshlang'ich ta'lim ko'pincha atrof-muhit va dunyoni o'rganishdan boshlanadi. Ularning salohiyat darajasi shu orqali shakllantirib boriladi. Biz ham shu tajribalarni qo'llasak uzluksiz ma'naviy ta'lim-tarbiya jarayonini asl mohiyatini bolalar amaliyotida qo'llasak ularning dunyoqarashi, hayotga bo'lgan muhabbatini rivojlantiramiz balki o'zgartirgan bo'lamiz. Bu borada ota-ona- ta'lim muassasasi-mas'ul tashkilotlar birdek hamkorlikni yo'lga qo'ymoqlari lozim. Xulosa o'rinda shu aytish joizki, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning dunyoqarashini o'stirish va rivojlantirish ularning ongini tashqi dunyo bilan bog'lash bolalar uchun yangi xarakteristik g'oyalarni eshigini ochadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://advice.uz/oz/document/2663?keyword=>
  2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/abu-nasr-forobiy-va-abu-rayxon-beruniylarning-ta-limiy-axloqiy-qarashlari>
  3. <https://lex.uz/docs/5049511#5054384>
  4. <https://lex.uz/docs/5049511#5054384>
- <https://lex.uz/docs/5049511#5054384>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/5049511#5054384>